

Published Date:- 18-10-2023

Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish usullari.

Muallif: Anarkulova Zubayda Fayzullo qizi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Xolmuminova Zulfiya Olimjon qizi

O'zbekiston Davlat Jahon
tillari universiteti 3-xorijiy til va adabiyoti
fakulteti 2-kurs 2215-guruh

zulfiyaxolmuminova@gmail.com

Ushbu maqolada ta’limni ,xususan, ingliz tilini o’rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati keng ochib beriladi. Shuningdek, o’quv jarayonini yangi metodlar bilan boyitishga qaratilgan bir qancha imkoniyatlardan misol keltirilib, o’quvchining qabul qilish darajasiga qarab farqlangan guruhlar ham tushuntiriladi.

In this article, the importance of using modern pedagogical technologies in education, in particular, in teaching the English language, is widely revealed. Also, examples of several opportunities aimed at enriching the educational process with new methods are given, and groups differentiated according to the level of student acceptance are also explained.

В данной статье широко раскрывается важность использования современных педагогических технологий в образовании, в частности, при обучении английскому языку. Также приведены примеры нескольких возможностей, направленных на обогащение образовательного процесса новыми методами, а также объяснены группы, дифференцированные по уровню принятия студентов.

Published Date:- 18-10-2023

Kalit so‘zlar: axborot- kommunikatsiya texnologiyalari, ”Modul o‘qitish”, Internet, gadget, elektron pochталari

XXI asrda zamonaviy hayotni axborot texnologiyalari yoki Internet gadgetlarsiz tasavvur qilish qiyin. Bu ta’limning yangi shakllari va usullarini, o‘quv jarayoniga yangi yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchilar pedagogika sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko‘lamda yoyish va o‘rganishni jadallashtirish muhim omillardan ekanligini ta’kidlab o‘tishadi.

Oshpazlar bir xil guruchdan osh pishirishadi, lekin ba’zi mahoratli oshpazlar o‘z ishlariga shunday puxtalik bilan yondashishadiki, bir xil masalliq ishlatgan bo‘lishsa ham ta’mda juda katta farq bo‘ladi. Xuddi shunday, nonvoylarning yopgan nonlari ta’mi va shakli jihatidan farq qiladi. Endi tasavvur qilib ko‘ring, o‘z ustida ishlagan, kasbini chindan sevgan, kundan kun yangiliklar qilishga oshiqqan o‘qituvchi bilan doimiy, eskicha ‘qobiq’da qolib ketgan o‘qituvchini orasida, nafaqat bitta muallim, balki butun kelajak nima ahvolga tushadi. Bilasizki, hozirgi kunni axborot texnika-texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Hatto 3-4 yoshli bog‘cha bolasi ham mobil aloqa vositalaridan hech qanday qiyinchiliksiz foydalana oladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari-bu ma’lumotlarni olish, saqlash, qidirish, qayta ishlash va axborot uzatish bilan bog‘liq jarayondir. Yurtimizda zamonaviy texnologiyalar tatbiq etilishining dastlabki yillardanoq, o‘quv jarayonida chet tillarini o‘qitish samaradorligi 30%ga oshganligi aniqlangan.

Hozirgi kunda ingliz tilida o‘qitish vositalaridan foydalanishning afzalliklari juda aniq. Demak, ular haqida bir necha so‘z aytish kifoya qiladi. Afzalliklar quyidagilar:

a) Internet olami o‘qituvchilar hamda o‘quvchilarga kerakli manbalar tezkor usulda toppish imkonini beradi. O‘qituvchilar turli multimedialar, audio va video lavhalar

Published Date:- 18-10-2023

orqali o‘z darslarini qiziqarli qilib o‘tishda ham zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanishmoqda.

b)kompyuter tarmog‘i til o‘rganuvchilar uchun har tomonlama foydali vositadir. Negaki, siz bir joyda turib dunyoning boshqa bir davlatidagi inson bilan bimalol muloqotda bo‘lish orqali o‘rganayotgan bilim va ko‘nikmalingizni mustahkamlashingiz mumkin. Yangi til o‘rganganda ham o‘sha davlat mahalliy aholisi bilan suhbatda bo‘lish, faqatgina kitob o‘qib o‘rganishga qaraganda ko‘proq natija olishga yordam beradi, albatta.

d)electron pochta, electron jurnallar, multimedia, World Wide Web, audio va video konfrensiyalar past o‘zlashtiruvchi talabalarda ham fanga qiziqish uyg‘otadi. Ularni rag‘batlantirib borish orqali esa biz til o‘rganuvchilar safimizni kengaytirishga erishamiz.

e)hozirgi kunda ommalashib borayotgan turli til o‘rgatuvchi programmalar, xususan, electron o‘yinlar ham shular jumlasidandir. Albatta, bu kabi o‘yinlardan to‘g‘ri foydalanish qisqa muddatda qo‘shimcha mustaqil tarzd bilimimizni oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, Respublikamizda chet tillarining o‘qitilishi, chet tili o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini baholashning umumyevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR)ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi.Una ko‘ra umumta‘lim va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun darsliklari yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o‘quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tilini o‘rganishga bo‘lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda.

Bugungi kunda har bir dars jarayonini axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog‘lash muhimdir. Oddiygina misol, bilaszki, endigina maktabga qadam qo‘ygan 1-sinf o‘quvchilarini e‘tiborini bir joyga jamlash va mavzuni yetkazib

Published Date:- 18-10-2023

bera olish ancha murakkab vaziyat hisoblanadi. Ular ko'chada erkinlikda yurgan bolalar va ularni majburan biron qobiqqa solish qiyin. Aynan shunday holatlarda, ularning qiziqtiradigan har xil video roliklar, turli o'yinlar bilan dars o'tish bolaning e'tiborini tortadi. Elektron darsliklar, electron tushuntirishlar dars sifatini yaxshilashga, vaqtni tejashga yordam beradi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida har bir o'qituvchi o'z pedagogik mahoratini darslarda Power Point, Word, Ispring, Macromedia Flash dasturlaridan foydalangan holda namoyon etmoqda. Chunki bu dasturlar an'anaviy darslardan farqli o'laroq, dars jarayonini qiziqarliligi, shiddatkorligini ta'minlaydi. Darslarda oddiy matnlar, o'g'zaki chiqishlar bilan chegaralanib qolmay, balki video, musiqa, jadvallar, rasmlar orqali dars sifati oshirib boriladi. Shuni ta'kidlash joizki, inson ko'rgan, jonli narsasini tez esida saqlab qoladi. Bunda albatta bu kabi dasturlarning, texnologik metodikalarning hissasi katta.

Bugungi texnologiyalar rivojlanayotgan davrda yurtimizda ham ko'z ilg'amas yangiliklarni yetarli. Shulardan e'tiborga olingan kattaroq o'zgarishlardan biri- oliy ta'lim tizimini ham elektronlashtirish bo'ldi. Bilaszi, yurtimizdagi boshqa universitetlar qatori bizning universitetimizda ham yangicha usul "Modulli o'qitish" tizimi bir necha yillardan beri muvaffaqiyatli qo'llanilib kelmoqda. "Modulli o'qitish"-xalqaro sinalgan metod bo'lib, uning bitta ma'nosi faoliyat ko'rsataoladigan o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugun ibildiradi. Bu ma'noda u modulli o'qitishning asosiy vositasi tugallangan axborot bloke sifatida tushuniladi. O'qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta 1972-yil YUNESKOning Tokiodagi Butunjahon Konferensiyasida so'z yuritilgan edi. Modulli o'qitishda, o'quv dasturlarini to'la, qisqartirilgan va chuqurtirilgan tabaqalashtirish orqali o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi. Bu tizim qator afzalliklarga ega. Jumladan, talabalar o'zlari istagan payt tarmoqqa kirib, berilgan topshiriq va vazifalarni bajara olishadi. Eng muhimi bu

Published Date:- 18-10-2023

jarayon uchun maxsus bir dars auditoriyasi talab etilmaydi, faqat internetga ulangan gadjet orqali tizimdan foydalanishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, til o‘rganishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish eng qulay usul hisoblanadi. Bu bilan nafaqat ta’lim tizimida, balki jahon taraqqiyotida ham ilg‘orlashib boramiz. Vaholanki, so‘nggi paytlarda mediatadqiqotchilar va pedagoglar media ta’limning, ayniqsa, axloqiy-demokratik jihatiga e’tibor berishmoqda. Masalan, media ta’lim yetakchilaridan biri B. Makson “21-asrdagi terrorchilik va urushlar davrida yoshlarga media ta’lim berish, demokratik jamiyatning qat’iy talabidir” deb yozadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Axborot texnologiyalari”. A.A. Abduqodirov, F. Hoyitov, R.R. Shodiyev
2. “Chet tillarini o‘qitish metodikasi dan ocherklar” Saidumar Saidaliyev, Namangan, 2004
3. <https://infocom.uz/axborot-texnologiyalarining-talimdagi-orni/>